# SPORT - YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MUHIM VOSITA

**Aslonova Sabina Akmal qizi** - Navoiy Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti Sport faoliyati(Kurash)yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada sportning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, uning sog‘lom hayot tarzini shakllantirishdagi roli, jismoniy va ruhiy rivojlanishga ta‘siri, shuningdek, sport orqali yoshlarni jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalash haqida so‘z yuritiladi. Sport nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilash, balki ko‘nikmalarni rivojlantirish, shakllantirish.

**Kalit so‘zlar**:Sport, yosh avlod, tarbiya, jismoniy rivojlanish, jamiyat, maqsadga yo‘naltirilgan ishlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, xulq-atvor, musobaqalar, sog‘lom hayot tarzi.

**Аннотация**: В данной статье рассматривается значение спорта в воспитании подрастающего поколения, его роль в формировании здорового образа жизни, влияние на физическое и психическое развитие, а также то, как спорт помогает воспитывать активных и ответственных граждан общества. Спорт не только улучшает физическое здоровье, но и способствует развитию и формированию различных навыков.

**Ключевые слова**: Спорт, молодое поколение, воспитание, физическое развитие, общество, целенаправленная деятельность, социальные навыки, поведение, совернования, здоровый образ жизни.

Yosh avlodni tarbiyalash jarayoni bugungi kunda faqat bilim berishdan iborat emas. Jamiyatning kelajagi sifatida ularning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishi hamda axloqiy qadriyatlar shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Sport, o‘zining ko‘plab foydalari bilan, yoshlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Sport faqat jismoniy salomatlikni yaxshilashni emas, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni, xulq-atvorni yaxshilashni, hamda mas’uliyatni oshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada sportning yoshlarni tarbiyalashdagi muhim roli batafsil tahlil qilinadi.

Sport, eng avvalo, yoshlarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sport mashg‘ulotlari orqali muskullar, suyaklar va yurak-qon tomir tizimining kuchayishi, ko‘nikmalar va chidamlilkning ortishi kuzatiladi. Biroq sportning ta‘siri faqat jismoniy rivojlanish bilan cheklanib qolmaydi. Yoshlarning psixologik rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Sport jarayonida yoshlar xulq-atvorini, boshqaruvni, mas’uliyatni va mehnatga bo‘lgan hurmatni shakllantiradi.

Sport yoshlarni jamoaviy ishda faol ishtirok etishga, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga, yagona maqsad sari birgalikda harakat qilishga o‘rgatadi. Bu jihat jamiyatda faol fuqarolarni shakllantirishga yordam beradi. Sportdagi musobaqalar va turnirlar orqali yoshlar raqobatni, g‘alaba va mag‘lubiyatni qanday qabul qilishni o‘rganadilar, shuningdek, do‘stlik va hurmatni qadrlashni o‘rganadilar. Sport, shuningdek, yoshlarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, sportda adolat, halollik, samarali muloqot va o‘zini boshqarish kabi fazilatlar alohida e‘tiborga olinadi. Yoshlar musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rishda qat’iyatlilikni, hamda kuchli maqsadga erishish uchun qanday harakat qilishni o‘ rganadilar. Shu bilan birga, sportdagi muvaffaqiyatlar va mag‘lubiyatlar yoshlarga hayotdagi haqiqatlarni va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi.

Sport yoshlarni sog‘lom hayot tarziga o‘rgatadi. Jismoniy mashqlar orqali organizmni mustahkamlash,ruhiy tushkunlikni kamaytirish va salomatlikni yaxshilashga erishiladi.Shu bilan birga, sport faqat tanani emas, balki ruhni ham sog‘lomlashtiradi. Yoshlar sportni kundalik hayotlariga kirgizganlarida, ular sog‘lom ovqatlanish, yaxshi uyqu va salomatlikni saqlashni odat qilib olishadi. Bu esa ularning kelajakda sog‘lom va baxtli hayot kechirishga yordam beradi.

Sport yoshlarni o‘zlarini qadrlash, maqsadlar belgilanadi, ularga erishish uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni o‘rgatadi. Shuningdek, sportning yoshlar orasidagi ta’siri orqali ular o‘zlarining kuchli tomonlarini aniqlaydilar va zaif jihatlarini yaxshilash uchin ko‘proq mehnat qilishga o‘rganadilar. Bu barcha fazilatlar yoshlarni kelajakdagi professional va shaxsiy muvaffaqiyatklarga tayyorlaydi.

Bugungi glaballashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma‘naviy uyg‘oq bo‘lib yashash, eng katta boylik sanalmish

tinchlik, millatlararo ahillik, o‘zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko‘z qorachig‘idek asrash va mustahkamlash asosiy vazifamiz sanaladi. Shu jihatdan olib qaralsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa o‘quv dargohlarida ta’lim-tarbiyaga e’tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan qator farmon, qaror va farmoyish hamda qonun hujjatlari imzolanib, yurtimizda ma’nan yetuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e’tiqodi mustahkam, siyosiy-ma’naviy saviyasi yuksak, intellektual salohiyatli yoshlarni kamol topishida alohida e’tibor qaratilayotganligi bejis emas.

Bedil “Me’mor dastlabki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u qiyshiq bo‘lib qolaveradi” degan edi. Demak, jamiyatda inson o‘z o‘rnini topishida moddiy boyliklari emas, balki yuksak ma’naviy qiyofasi ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog‘lovchi ma’naviyat ota-bobolarimizdan meros jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an’analarning majmui,qolaversa, ular to‘plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o‘zida mujassam etadi va bu jarayonda ota ona muhim o‘rin tutadi. Ota-ona zimmasidagi burch faqat chiroyli odob-axloq o‘rgatishdan iborat emas, balki uni turli xil mafkura va g‘ayri insoniy yot g‘oyalardan saqlash ham ota-onaning burchlaridan biri hisoblanadi. Chunki e’tiqodi sog‘lom, mafkurasi to‘g‘ri bo‘lgan farzand ota-onaga mehribon, el-yurtiga sadoqatli fidoyi inson bo‘lib voyaga yetadi. Farzandini jismonan sog‘lom, baquvvat qilib voyaga yetkazmog‘I ham ota-ona burchlaridan biridir.

Janob Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam: “O‘g‘illaringizga suvda suzishni, kamonda otishni, qizlaringizga tikishni o‘rgatinglar”,- deb farzandlarni chaqqon, sog‘lom, baquvvat, ziyrak va hunarli qilib tarbiyalashga targ‘ib qilganlar.Chunki sog‘lom va kuchli inson har doim o‘z eliga, vatania naf keltiradi.

Shuningdek, respublikamizda iqtidorli va iste’dodli yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash borasida ko‘plab qulayliklar yaratildi. Jumladan, qonunchilikda belgilangan tartibda mukofotlar, stependiyalar belgilash, ta’lim grantlari taqdim etish; iqtidorli va iste’dodli yoshlarni aniqlash va rag‘batlantirish maqsadida tanlovlar , olimpiadalar, ko‘rgazmalar, festivallar, ko‘riklar, konsertlar, simpoziumlar, o‘qishlar, konferensiyalar, seminarlar tashkil etish hamda o‘tkazish; yoshlarga oid xalqaro tajriba almashinuvi; iqtidorli va iste’dodli yoshlarni ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarda o‘qitish, qayta toyyorlash va amaliyotni o‘tash dasturidan tanlov asosida foydalanishini ta’minlash; ilmiy-tadqiqot, madaniy- ma;rifiy ishlarni o‘tkazish uchun yosh mutaxassislar va olimlarga shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarning ishlanmalarini

amaliyota joriy etishga ko‘maklashish, shunindek, yoshlarning kadrlar salohiyatini saqlab qolish hamda rivojlantirish; iqtidorli va iste;dodli yosh sportchilarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar o‘rtasida sport musobaqalarini o‘tkazish yuksak samara berayotganligi hech kimga sir emas.

Ayniqsa, mamlakatimizda 30-iyun –“ Yoshlar kuni” deb e’lon qilinganligi hamda yoshlarni madaniyat, san’at, sport va jismoniy tarbiyaga jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish , xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga olgan beshta muhim tashabbusning bugunda takomillashib borishi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish borasida muhim qadam bo‘lmoqda.

Ma’lumki, 2024-yilning “ Yoshlar va biznesni qo‘llab- quvvatlash yili” deb nomlanishi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida muhim vazifalarni belgilab berdi va natijali ishlar amalga oshirildi. Xususan, iqtisodiyotimizga xorijiy investitsilarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish bu tizimdagi yoshlar ulushini oshirish, ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish vazifasi qo‘yildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1.Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5312-sonli “Yoshlarni sportga keng jalb qilish va sport sohasida ijtimoiy faollikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018yil 5fevral.

2.Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6103-sonli “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.2020yil 10noyabr.

3.R.Abduqahhorov. “Sport va jismoniy tarbiya sohasida pedagogic texnologiyalar” 2018yil.

4.V.Piskunov. “Sport pedagogikasi”. 2019yil.

5.Sh.Tursunov. “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish” 2015yil.

6.Sh.Raximov. Barkamol avlod tarbiyasi millat tayanchi. “O‘qituvchi” nashriyoti.(2020y).

7. M.Qodirov. Yosh avlod kelajak poydevori. “ Sharq”. (2022y).